

HOZIRGI SURXON ADABIY MUHITI (OLTINSOY TUMANI)DA PROZA JANRI RIVOJI

Abdurahmonova Mavluda

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Jórayeva Shohista

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Qudratov Doston

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Nurullayeva Iroda

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

inurullayeva336@gmail.com

Annotatsiya: *Suron adabiy muhitida ijod qilgan ijodkorlar haqida ma'lumot berildi Adiblar ijodi, yozgan asarlariga birma-bir to'xtaldi. Surxon adabiy muhiti qisqacha yoritib berildi*

Kalit so'zlar: *Nasr, nazm, asar, qahramon, adib, poeziya, proza*

“Nasr og'ir karvon, nazm chopag'on”, - deyishadi. Darhaqiqat, o'zbek adabiyotining rivoji hamda ulkan xazinasiga Surxon adabiy muhitidagi ijodkorlar ham o'zing beqiyos hisslarini qo'sha olishdi va bu jarayon davom etmoqda. Surxon adabiy muhiti qadim tarixga tengdoshdir.

Bu zamin ko'pgina ijodkorlar, yozuvchilar, shoirlarni ulg'aytirdi. Surxon vohasining o'ziga xos manzarasi, sir-u sinoatga boy tabiati, moziydan sado berib turadigan tarixiy obidalar, dostonlari, qo'shiqlarga boy xalq og'zaki ijodiyoti bu yurtidan ko'plab adib-u ulamolar, shoir-u fuzalolar yetishib chiqishiga sabab bo'lgan.

IX-X asrlarda Surxon vohasining markazi - Termizda ko'plab dunyoviy va islomiy ilmlar namoyandalari etishib chiqqanliklari ham ma'lum. Al-Hakim at-Termiziy, Varroq at-Termiziy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Munjik Termiziy, adib Sobir Termiziy kabi alloma va shoirlarni ko'rsatish mumkin.

S.Sayyid, G.Tog'ayeva, Sh.Xolmirzaev, T. Murod, Q. Norqobil, E.A'zamov, N.Normatov, U.Azim, M.Kenjabek, E.Shukur va boshqa bir qator ijodkorlar ham Surxon vohasida dunyoga kelgan va ijod qilgan.

O'z navbatida Surxon vohasida ijod qilgan adiblarning sa'y-harakatlari natijasida surxon vohasining o'zida Sherobod adabiy muhiti, Boysun adabiy muhiti, Sariosiyo adabiy muhiti, Denov adabiy muhiti, Termiz adabiy muhiti, Oltinsoy adabiy muhiti allaqachon shakllanib ulgurdi.

Termiz adabiy muhitiga o'zining dadil qadamlari, o'tkir so'zlari bilan hissa qo'shgan ijodkor Shafolat Rahmatullo Termiziydir. Uning ilk she'riy majmuasi “Janub shamoli” dan keyingi “Ozod so'z” ga qadar katta ijodiy yo'lni bosib o'tdi va kitobxonlar e'tiboriga tushdi.

Hozirgi Termiz adabiy muhitida faol ishtirok etayotgan shoirlardan Mengnor Ollomurodning “Sevgi daraxtining guli”, “Ishq qayg’usi”, “Abdurasul Jumaqulning “Osmon beshigi”, Omon Abdurasulning “Amal qilib”, Baxtiyor Ollomurodning “Qalb rozi”, Qo’shon Abdullaning “Bir sog’inch uyg’otar saharni”, Halima Oqiyevaning “Sog’inch” nomli to’plamlari chop etilib, o’z kitobxonlarini topishga ulgurgan. Sariosiyo adabiy muhitining yorqin vakili Sirojiddin Sayyiddir. Sirojiddin Sayyid 1958-yilning 30-oktabrida Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Kundajuvoq qishlog’ida tug’ilgan. Bolalik chog’laridan boshlab matalgo’ylik, dostonxonlik muhitida, ertak va afsonalar olamida ulg’aygan. Oyibi momosi, Saidumar amakisi, Islomiddin tog’asidan eshitgan xalq qo’shiqlari, Abduvahob bobo, Vahob shoirning she’rlari, onasi Xolbihi Nasriddin qizi aytgan naql-u hikoyatlar uning shoirlik qismatida muhim o’rin tutgan.. Sirojiddin Sayyid ToshDU (hozirgi O’zbekiston Milliy universiteti) ning jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Izlanish va qizg’in mutolaa yillariga aylangan talabalik davrining sinov va imtihonlari, taqlid va takrorlari, ayriliqlari-yu hijronlari uning o’z yo’li va ovozi topishida, shaxs va shoir sifatida shakllanishida alohida ahamiyat kasb etgan edi.

Sirojiddin Sayyidning “Xayrullaning komandasi” nomli ilk hikoyasi 1972-yilda, sakkizinchi sinfda o’qib yurganida Respublika bolalar gazetasida bosilgan edi. “Orzu” va “Istak” nomli birinchi she’rlari 1975- yilda “Toshkent universiteti”, undan so’ng “Sevgi” va “Orzu” nomli she’rlari “Sariosiyo haqiqati” gazetalarida chop etildi. “Ruhim xaritasi” nomli ilk kitobi 1985- yilda G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida bosilib chiqdi. Mustabid tuzum mafkurasi kitobchadagi she’rlarni g’oyasizlikda aybladi. Shundan so’ng ko’p o’tmay “Yoshlik” jurnalida bosilgan “Saksoninchi yillar” dostoni Sirojiddin Sayyidni shoir sifatida keng tanitdi.

Shundan keyin uning “Salqin xarsanglar kaftida” (1986), “Sevgi mamlakati” (1987), “Asragil” (1990), “Mehr qolur, muhabbat qolur” (badiialar, maqolalar, 1992), “Kuydim” (1994), “Uyingdagi beshiklar” (1996), “Vatanni o’rganish” (1996), “Egasi bor yurt” (2001), “Qaldirg’ochlarga ber ayvonlaringni” (2005), “Dil fasli” (2007), “Yashasin yomg’irlar” (badiialar, suhbatlar, adabiy maqolalar, 2007) “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” (doston, 2011), “Bug’doybo’y Vatan” (she’rlar, badiialar, maqolalar, 2011), “Ochil, ey gul, ki bo’ston vaqti bo’ldi” (2014) singari kitoblari bosilib chiqdi.

2008-yili “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati shoirning “So’z yo’li” nomli ikki jildlik tanlangan asarlarini nashrdan chiqardi.

Boysun adabiy muhiti vakillaridan biri-Usmon Azim, asl ism-sharifi Azimov Usmonqul (1950-yil 13-avgustda Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tug’ilgan) — O’zbekiston xalq shoiri (2000), dramaturg. Toshkent universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan (1972). Ilk kitobi – «Insonni tushunish» (1979). Shundan so’ng shoirning “Holat” (1979), “Oqibat” (1980), „Ko’zgu“ (1983), „Surat parchalari“ (1985), “Dars» (1985), „Ikkinchi aprel“ (1987), „Baxshiyona“ (1989), „G’aroyib ajdarho“ (1990), „Uyg’onish azobi“ (1991), „G’ussa“ (1994), „Uzun tun“ (1994), „Bor ekanda, yo’q ekan“ (1995), „Saylanma“ (1995), „Kuz“ (2001) kabi she’riy va „Jodu“ (2003) nasriy to’plamlari nashr etilgan. Usmon Azim o’zbek she’riyatining ufqini kengaytirib, nasriy

she'rlardan barmoq vaznigacha bo'lgan turli vaznlarda ijod qiladi. Dastlabki she'rlarida insonning davr va jamiyat hayotidagi o'rnini tushunishga, davrning og'riqli masalalariga e'tibor qaratdi va shu jarayonda minbar she'riyati unsurlaridan foydalandi.

Usmon Azim „Baxtli bo'laylik“, „Hujjatli film uchun syujet“, „Bahodir va Malika“ singari radiopyesalar yozgan. U ana shu tajribadan foydalanib, 90-yillarda dramaturgiya bilan jiddiy shug'ullandi va „Bir qadam yo'l“, „Kunduzsiz kechalar“, „Bozor“ (1997), „Alpomishning qaytishi“ (1998), „Jazava“ (2000), „Baxt qushi“ (2002), „O'tgan zamon hangomalari“ (2003) pyesalarini yozdi. Bu pyesalarning aksari O'zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan. Usmon Azim bu pyesalarda sahna qonuniyatlarini yaxshi his etuvchi, dramaturg sifatida namoyon bo'ldi. Ayni paytda u ham tarixiy, ham psixologik dramalar, ham og'zaki va yozma adabiyot namunalari asosida zamonaviy sahna asarlarini yarata olish iste'dodini namoyish etdi.

She'rlari ingliz, fransuz, nemis, polyak, makedon, turk, rus, gruzin, eston, litva, tojik, qozoq va qirg'iz tillarida nashr etilgan. Ko'plab she'rlariga musiqa bastalangan.

Usmon Azim Gruziyaning Mayakovskiy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan (1982). „Do'stlik“ ordeni (1998) bilan mukofotlangan.

Jarqo'rg'on adabiy muhitining vakilasi bo'lgan Jamila Ergasheva 1956-yili 8-mayda Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 1979-yili Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. "Ayol va zamon" gazetasida bosh muharrir lavozimida mehnat qilgan. Uning "Izhor" (1990), "Intiqom" (1993), "Tanazzul" (1996), "Ayol jodusi" (2003), "Zulfizar" (2011), "Qir ustidagi ayol", "Shom shafag'i jilvalari" kabi kitoblari chop etilgan.

Yozuvchining matbuotda e'lon qilingan "Malomat", "Oyjamol", "Munavvar dunyo", "Sog'inch", "Qaytar dunyo" kabi o'nlab asarlari Vatanga e'tiqod, el mehri, odamiylik va yaxshilikni tarannum etdi.

Shunday katta ilmiy va badiiy salohiyatga ega bo'lgan Surxon adabiy muhiti keyingi yillarda gullab yashnashda davom etmoqda. Ayniqsa, 60- yillardan boshlab she'riyatda Tesha Saydaliyev, Ra'no Uzoqova, Shafoat Rahmatullaev, Bolta Sodiqov, Bolta Yoriev, Yangiboy Shoymardonov, Abdumurod Rahmonov, Gulandom Tog'ayeva, Shamsiya Xudoynazarova, Dilbar Siddiqova, nasrda M.Safarov, Xurram Maqsadqulov, J. Ergasheva, E. Norsafar, dramaturgiyada I.Otaqulov, Xoliq Xursandov, publitsistikada N.Hayitqulov, Xudoyberdi Eshonqulov singari ijodkorlar voha adabiy jarayonida faol ishtirok etdilar. Bu hodisa hozirda ham jadal davom etmoqda.